



## IQTISODIY SUDLARDA CHET EL QARORLARINI TAN OLISH VA IJROGA QARATISH

**O'rayev Kamtarbek Alibekovich**

talaba, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Xalqaro biznes  
huquq" magistr

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20811542>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-iyun 2026 yil  
Ma'qullandi: 15-iyun 2026 yil  
Nashr qilindi: 23-iyun 2026 yil

#### KEY WORDS

chet el sudlari qarorlari,  
arbitraj qarorlari, iqtisodiy  
sudlar, xalqaro xususiy huquq,  
iqtisodiy protsessual huquq,  
ommaviy tartib, transchegaraviy  
nizolar, ijro varaqasi, xalqaro  
tijorat arbitraji.

### ABSTRACT

Mazkur maqolada iqtisodiy sudlarda chet el sudlari va arbitrajlarining qarorlarini tan olish hamda ijroga qaratishning huquqiy asoslari, amaliyotda uchrayotgan muammolar va ularni bartaraf etish masalalari tahlil qilingan. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning kengayishi, xorijiy investitsiyalar hajmining ortishi va transchegaraviy tijorat nizolarining ko'payishi chet el sud qarorlarini tan olish va ijro etish institutining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Biroq ushbu jarayonda xalqaro shartnomalar mavjud emasligi, hujjatlarni legallashtirish va tarjima qilish bilan bog'liq qiyinchiliklar, ommaviy tartib (public policy) mezonlarining turlicha talqin qilinishi kabi muammolar uchramoqda. Tadqiqot davomida qiyosiy-huquqiy, formal-yuridik hamda tahliliy metodlardan foydalanildi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 248-258-moddalari, 1958-yilgi Nyu-York konvensiyasi, Kiyev bitimi, Minsk va Kishinyov konvensiyalari hamda ayrim ikki tomonlama xalqaro shartnomalar normalari o'rganildi. Tahlillar natijasida chet el sudlari va arbitrajlarini qarorlarini tan olish hamda ijroga qaratish mexanizmining xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdagi muhim o'рни aniqlanib, ushbu sohadagi normativ-huquqiy va amaliy muammolar yoritildi. Shuningdek, qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro shartnomalar doirasini kengaytirish, protsessual tartib-taomillarni soddalashtirish va ommaviy tartib tushunchasini aniqroq belgilash bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Mazkur takliflarning amalga oshirilishi iqtisodiy sudlov samaradorligini oshirishga hamda mamlakat investitsiyaviy jozibadorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Kirish.**

Globalashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi hamda transchegaraviy investitsiyalar hajmining ortishi natijasida turli davlatlar rezidentlari o'rtasidagi iqtisodiy nizolar soni sezilarli ravishda ko'paymoqda. Bunday nizolarning samarali hal etilishi nafaqat nizolashayotgan tomonlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, balki xalqaro tijorat munosabatlarida huquqiy barqarorlik va ishonchni ta'minlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, chet el sudlari va arbitrajleri tomonidan qabul qilingan qarorlarni tan olish hamda ijroga qaratish instituti xalqaro xususiy huquq va iqtisodiy protsessual huquqning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro huquq nazariyasida chet el sud qarorlarini tan olish va ijro etish davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch (mutual trust), xalqaro hamkorlik hamda comity doktrinasi bilan izohlanadi.<sup>1</sup> Mazkur institutning samarali faoliyat yuritishi xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlarini mustahkamlaydi, xalqaro tijorat muomalasining barqarorligini ta'minlaydi hamda davlatning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi. Aksincha, sud qarorlarini tan olish va ijro etish mexanizmining murakkabligi yoki samarasizligi transchegaraviy iqtisodiy faoliyatning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mazkur masala xalqaro huquqshunos olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Jumladan, Born xalqaro arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish mexanizmi xalqaro tijorat arbitrajining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini ta'kidlaydi. Gaillard va Savage arbitraj qarorlarining transmilliy tabiati hamda ularni tan olishning xalqaro savdo rivojlanishidagi ahamiyatini asoslab bergan. Briggs, Dicey va Morris esa chet el sud qarorlarini tan olishda yurisdiksiya, ommaviy tartib (public policy) va protsessual adolat mezonlarining hal qiluvchi rolini ko'rsatib o'tganlar. MDH davlatlari olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa Kiyev bitimi, Minsk va Kishinyov konvensiyalarining sud qarorlarini tan olishdagi amaliy ahamiyati yoritilgan.<sup>2</sup> O'zbekiston huquqshunoslari tomonidan ham chet el sudlari va arbitrajleri qarorlarini tan olish hamda ijroga qaratish masalalari iqtisodiy protsessual huquq doirasida o'rganilgan. Tadqiqotlarda asosan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 248–258-moddalari mazmuni, xalqaro shartnomalarning qo'llanilishi hamda sud amaliyotining ayrim jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, 1958-yildagi Nyu-York konvensiyasining milliy huquq tizimidagi o'rni va xalqaro arbitraj qarorlarini ijro etishdagi ahamiyati ham alohida e'tirof etilgan.<sup>3</sup> Biroq mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat tadqiqotlar mazkur institutning normativ-huquqiy asoslarini sharhlash bilan cheklanib qolgan. Xususan, chet el sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratishda yuzaga kelayotgan amaliy muammolar, xalqaro shartnomalar mavjud bo'lmagan holatlarda sudlarning yondashuvi, ommaviy tartib kategoriyasining talqin qilinishi, protsessual talablarning investitsiyaviy muhitga ta'siri hamda sud va arbitraj qarorlarini ijro etish mexanizmlarining qiyosiy tahlili yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, iqtisodiy sudlar faoliyati misolida ushbu muammolarning tizimli va kompleks tahlili milliy huquqshunoslikda yetarli darajada shakllanmagan. Shu bois mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy sudlar tomonidan chet el sudlari va arbitrajleri qarorlarini tan olish hamda ijroga qaratishning huquqiy mexanizmini tahlil qilish, amaliyotda uchrayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida milliy qonunchilik normalari, xalqaro shartnomalar va xalqaro huquq tamoyillari o'zaro bog'liqlikda o'rganiladi. Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati chet el sudlari va arbitrajleri qarorlarini tan olish hamda ijroga qaratish institutining nazariy va amaliy jihatlari kompleks yoritishida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy protsessual qonunchilikni takomillashtirish, sud amaliyotida yagona yondashuvni shakllantirish hamda O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy-

<sup>1</sup> Comity doktrinasi (Hilton v. Guyot, 1895) - <https://supreme.justia.com/cases/federal/us/159/113/>

<sup>2</sup> Minsk konvensiyasi (1993) - <https://lex.uz/mact/-4907818>

<sup>3</sup> Nyu-York konvensiyasi (1958) -

[https://uncitral.un.org/en/texts/arbitration/conventions/foreign\\_arbitral\\_awards](https://uncitral.un.org/en/texts/arbitration/conventions/foreign_arbitral_awards)

huquqiy integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, ishlab chiqilgan takliflar mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy investorlar huquqlarining ishonchli himoyasini ta'minlash va xalqaro tijorat munosabatlarida huquqiy aniqlikni mustahkamlashga ko'maklashadi.

### Asosiy qism.

**Ilmiy adabiyotlar tahlili.** Chet el sudlari va arbitrajleri qarorlarini tan olish hamda ijroga qaratish instituti xalqaro xususiy huquq, xalqaro fuqarolik protsessi va xalqaro arbitraj huquqining kesishgan nuqtasida shakllangan murakkab huquqiy mexanizm hisoblanadi. Ushbu masala yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni shartli ravishda uch asosiy yo'nalishga ajratish mumkin: xalqaro arbitraj qarorlarini ijro etish samaradorligi, chet el sud qarorlarini tan olishning nazariy asoslari hamda milliy sudlarning ommaviy tartib (public policy) istisnosini qo'llash amaliyoti. Xalqaro arbitraj sohasidagi tadqiqotlarda Born arbitraj institutining muvaffaqiyati, avvalo, qabul qilingan qarorlarning transchegaraviy ijro etilishi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.<sup>4</sup> Uning fikricha, arbitraj qarorining mavjudligi emas, balki uning boshqa davlat hududida tan olinishi va majburiy ijro etilishi arbitrajning haqiqiy samaradorligini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan Born arbitraj qarorlarini ijro etish mexanizmini xalqaro tijorat arbitrajining markaziy elementi sifatida baholaydi. Gaillard esa masalaga biroz boshqacha yondashib, arbitraj qarorlarini milliy huquq tizimlaridan nisbatan mustaqil bo'lgan transmilliy huquqiy hodisa sifatida talqin qiladi.<sup>5</sup> Uning konsepsiyasida arbitraj qarorini tan olish jarayoni davlat suverenitetining ifodasi emas, balki xalqaro savdo manfaatlarini ta'minlash vositasi sifatida ko'riladi. Demak, Born ijro mexanizmining amaliy samaradorligiga urg'u bergan bo'lsa, Gaillard arbitrajning transmilliy huquqiy tabiatini asoslashga ko'proq e'tibor qaratadi. Chet el sud qarorlarini tan olish masalasida esa boshqa nazariy yondashuvlar shakllangan. Dicey, Morris va Collins qarorlarni tan olish institutining asosini xalqaro muomala barqarorligi va huquqiy aniqlik tamoyillari bilan bog'laydilar.<sup>6</sup> Ularning fikricha, chet el sudining qarori, agar sud yurisdiksiyasi qonuniy bo'lsa va taraflarning protsessual huquqlari ta'minlangan bo'lsa, boshqa davlat tomonidan tan olinishi lozim. Briggs esa ushbu yondashuvni qo'llab-quvvatlagan holda, davlatlarning sud suvereniteti omilini ham alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, har qanday davlat chet el sud qarorini tan olish masalasida o'zining konstitutsiyaviy va ommaviy-huquqiy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega. Shunday qilib, Dicey va Morris xalqaro huquqiy hamkorlikka ustuvor ahamiyat bersalar, Briggs davlat manfaatlarini va yurisdiksiyon mustaqillik masalasini birinchi o'ringa qo'yadi. Ommaviy tartib istisnosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ham yagona yondashuv mavjud emas. Van den Berg Nyu-York konvensiyasining muvaffaqiyati aynan ommaviy tartib istisnosining tor talqin qilinishi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.<sup>7</sup> Uning fikricha, ushbu istisno faqat favqulodda holatlarda qo'llanishi kerak, aks holda xalqaro arbitraj tizimining samaradorligi pasayadi. Bunga qarama-qarshi ravishda ayrim olimlar ommaviy tartib kategoriyasini davlat suverenitetining huquqiy kafolati sifatida baholaydilar va uni kengroq talqin qilish zarurligini ilgari suradilar. Natijada ilmiy adabiyotlarda ommaviy tartibning mazmuni va qo'llanish chegaralari yuzasidan hanuzgacha yagona konsepsiya shakllanmagan. MDH mamlakatlari huquqshunoslari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa asosiy e'tibor Kiyev bitimi, Minsk va Kishinyov konvensiyalarining amaliy ahamiyatiga qaratilgan. Ushbu ishlarda sud qarorlarini tan olishning protsessual jihatlari, hujjatlarni taqdim etish tartibi va rad etish asoslari batafsil tahlil qilingan. Biroq mazkur tadqiqotlarning

<sup>4</sup> <https://www.wolterskluwer.com/en/solutions/kluwarbitration/born>

<sup>5</sup> <https://academic.oup.com/jids/article-abstract/1/2/271/902986?redirectedFrom=fulltext>

<sup>6</sup> <https://store.thomsonreuters.com.au/dicey-on-conflict-of-laws-16e-mwsup/productdetail/132057>

<sup>7</sup> <https://www.newyorkconvention.org/resources/publications/nyac-i>

aksariyati normativ sharh xarakteriga ega bo'lib, iqtisodiy sudlar faoliyatida yuzaga kelayotgan amaliy muammolarni tizimli ravishda baholashga yetarli e'tibor qaratilmagan.

**Natijalar va muhokama, tadqiqot natijalari.** O'zbekiston Respublikasida chet el sudlari va arbitrajlar qarorlarini tan olish hamda ijroga qaratish instituti xalqaro standartlar asosida shakllangan bo'lishiga qaramay, uning amaliy qo'llanilishida qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Tahlillar natijasida ushbu muammolar asosan xalqaro-huquqiy, protsessual va interpretatsion omillar bilan bog'liqligi aniqlandi. Birinchi muhim natija shundan iboratki, chet el sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish ko'p jihatdan xalqaro shartnomalar mavjudligiga bog'liq. Iqtisodiy protsessual kodeksi hamda amaldagi xalqaro shartnomalar tahlili shuni ko'rsatdiki,<sup>8</sup> O'zbekiston bilan huquqiy yordam to'g'risida shartnoma tuzmagan davlatlar sudlari qarorlarini tan olish amaliyoti sezilarli darajada cheklangan. Bu holat xalqaro iqtisodiy munosabatlarning zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga to'liq mos kelmaydi. Chunki bugungi global iqtisodiyotda biznes aloqalari ko'pincha ikki tomonlama huquqiy yordam shartnomasi mavjud bo'lmagan davlatlar bilan ham amalga oshiriladi. Mazkur natija Briggsning davlat yurisdiksiyasi va sud suvereniteti ustuvorligini ta'kidlovchi yondashuviga yaqin bo'lsa-da, Born va Gaillard tomonidan ilgari surilgan xalqaro tijorat muomalasini maksimal darajada qo'llab-quvvatlash konsepsiyasidan ma'lum darajada farq qiladi. Shu sababli xalqaro shartnomalarning mavjudligi yoki mavjud emasligi asosida keskin farqlash zamonaviy transchegaraviy iqtisodiy munosabatlar ehtiyojlariga to'liq javob bermasligi mumkin. Ikkinchi natija sifatida tan olish va ijroga qaratish jarayonida hujjatlarni rasmiylashtirish bilan bog'liq protsessual talablarning murakkabligi aniqlandi. Xususan, sud qarorlarining tasdiqlangan nusxalarini, ularning qonuniy kuchga kirganligini tasdiqlovchi hujjatlarni hamda davlat tilidagi notarial tasdiqlangan tarjimalarni taqdim etish talabi amaliyotda qo'shimcha vaqt va xarajatlarni keltirib chiqaradi. Bir tomondan, bunday talablar hujjatlarning haqiqiylikini ta'minlashga xizmat qiladi. Boshqa tomondan esa, ular sud qarorlarining tezkor ijrosiga to'sqinlik qilishi mumkin. Ushbu holat Van den Berg tomonidan Nyu-York konvensiyasining asosiy maqsadi arbitraj qarorlarining erkin harakatlanishini ta'minlashdan iboratligi haqidagi qarashlari bilan qisman ziddiyatga kirishadi. Tadqiqot natijalari protsessual kafolatlar va ijro samaradorligi o'rtasida muvozanatni topish zarurligini ko'rsatadi.<sup>9</sup> Uchinchi muhim natija "ommaviy tartib" (public policy) kategoriyasining amaliy qo'llanishi bilan bog'liq. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, amaldagi qonunchilikda mazkur tushunchaning aniq ta'rifi mavjud emas. Natijada uni talqin qilish sud amaliyotiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Bu esa huquqni qo'llashda oldindan bashorat qilish imkoniyatini pasaytiradi. Xalqaro tajribada, xususan Van den Berg va Gaillard tadqiqotlarida ommaviy tartib istisnosini tor doirada qo'llash tarafdorlari ustunlik qiladi. Ularning fikricha, ushbu istisnoning keng talqin qilinishi xalqaro arbitraj va sud qarorlarining erkin muomalasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari ham mazkur pozitsiyani tasdiqlaydi. Chunki ommaviy tartib kategoriyasining chegaralari qanchalik noaniq bo'lsa, chet el qarorlarini tan olish masalasida shunchalik ko'p huquqiy noaniqlik yuzaga keladi. To'rtinchi natija arbitraj qarorlari va chet el sudlari qarorlarini tan olish mexanizmlari o'rtasidagi farqlar bilan bog'liq. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, arbitraj qarorlarini tan olish masalasida Nyu-York konvensiyasi tufayli nisbatan yaxlit va barqaror xalqaro mexanizm shakllangan. Sud qarorlarini tan olishda esa bunday universal mexanizm mavjud emas. Natijada arbitraj qarorlari xalqaro muomalada sud qarorlariga nisbatan kengroq himoya darajasiga ega. Ushbu natija Bornning arbitrajni xalqaro tijorat nizolarini hal qilishning eng samarali vositalaridan biri sifatida baholovchi nazariyasini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari shuningdek, amaldagi tartibning investitsiyaviy muhitga bevosita ta'sir ko'rsatishini ham

<sup>8</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-3523891>

<sup>9</sup> <https://lex.uz/docs/2009040>

ko'rsatdi. Xorijiy investorlar uchun nizo yuzaga kelganda qabul qilingan qarorning samarali va tezkor ijro etilishi muhim omil hisoblanadi. Agar tan olish va ijroga qaratish mexanizmi murakkab yoki oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan darajada noaniq bo'lsa, bu investitsion tavakkalchilik darajasini oshiradi. Shu jihatdan tadqiqot natijalari xalqaro iqtisodiy integratsiya va investitsiyalarni jalb etish siyosati bilan sud qarorlarini tan olish institutining rivojlanishi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Umuman olganda, olingan natijalar chet el sudlari va arbitrajari qarorlarini tan olish hamda ijroga qaratish sohasida O'zbekiston qonunchiligi xalqaro standartlarga umumiy jihatdan mos ekanligini ko'rsatadi. Biroq xalqaro shartnomalar doirasining cheklanganligi, protsessual talablarning murakkabligi va ommaviy tartib tushunchasining noaniqligi ushbu institut samaradorligini pasaytirayotgan asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur holat qonunchilikni yanada takomillashtirish va xalqaro standartlarga yaqinlashtirish zaruratini ko'rsatadi.

### **Amaliy tavsiyalar.**

1. **Xalqaro huquqiy hamkorlikni kengaytirish.** O'zbekiston Respublikasi chet el sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bo'yicha asosiy iqtisodiy hamkor davlatlar bilan yangi ikki tomonlama huquqiy yordam shartnomalarini tuzishi hamda mavjud xalqaro majburiyatlar doirasini kengaytirishi maqsadga muvofiq.
2. **"Ommaviy tartib" tushunchasini normativ jihatdan aniqlashtirish.** Iqtisodiy protsessual qonunchilikda yoki Oliy sud Plenumining tegishli qarorlarida ushbu tushunchaning qo'llanish mezonlarini belgilash orqali sud amaliyotida yagona yondashuvni shakllantirish zarur.
3. **Tan olish va ijroga qaratish tartibini soddalashtirish hamda raqamlashtirish.** Hujjatlarni taqdim etish, tarjima qilish va tasdiqlash bilan bog'liq ayrim protsessual talablarni optimallashtirish, elektron hujjat aylanishi va onlayn murojaat mexanizmlarini joriy etish lozim.
4. **Sud amaliyotini bixillashtirish va sudylar malakasini oshirish.** Xalqaro xususiy huquq hamda xalqaro arbitraj bo'yicha muntazam malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish, shuningdek, chet el sudlari va arbitrajari qarorlarini tan olishga oid sud amaliyoti sharhlarini e'lon qilib borish tavsiya etiladi.
5. **Milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish.** Chet el sudlari va arbitrajari qarorlarini tan olish hamda ijroga qaratish mexanizmlarini xalqaro huquqning zamonaviy tendensiyalari asosida takomillashtirish, investorlar uchun huquqiy kafolatlarni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Taklif etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi chet el sudlari va arbitrajari qarorlarini tan olish hamda ijroga qaratish mexanizmining huquqiy aniqligi va amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, xalqaro huquqiy hamkorlikning kengaytirilishi transchegaraviy iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilish imkoniyatlarini kuchaytirs, ommaviy tartib tushunchasining aniq chegaralarini belgilash sud amaliyotida bir xillik va prognoz qilinuvchanlikni ta'minlaydi. Shuningdek, protsessual tartib-taomillarning soddalashtirilishi va raqamlashtirilishi sud xarajatlari hamda vaqt sarfini kamaytirib, sud qarorlarining ijro etilish tezligini oshiradi. Mazkur yondashuvlar xalqaro amaliyotda ham o'z samarasini ko'rsatgan. Jumladan, iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) tadqiqotlarida investitsiyaviy muhitning barqarorligi ko'p jihatdan shartnomaviy majburiyatlar va sud qarorlarining samarali ijro etilishi bilan bog'liqligi ta'kidlanadi.<sup>10</sup> Shu bilan birga, Jahon bankining huquq ustuvorligi va biznes muhitiga oid

<sup>10</sup> <https://www.oecd.org/>

tadqiqotlarida ham sud qarorlarining ijro etilish darajasi xorijiy investitsiyalar hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri sifatida e'tirof etilgan.<sup>11</sup> Shu sababli mazkur tadqiqotda ilgari surilgan takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi nafaqat iqtisodiy sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga, balki O'zbekistonning xalqaro investitsiyaviy jozibadorligini mustahkamlashga ham xizmat qilishi mumkin.

### **Xulosa.**

Mazkur tadqiqot natijalari iqtisodiy sudlarda chet el sudlari va arbitrajleri qarorlarini tan olish hamda ijroga qaratish instituti xalqaro iqtisodiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlashda muhim huquqiy mexanizmlardan biri ekanligini ko'rsatdi. O'tkazilgan normativ-huquqiy va qiyosiy tahlillar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi ushbu institutning faoliyat yuritishi uchun zarur huquqiy asoslarni yaratganligini, biroq uning amaliy samaradorligini pasaytirayotgan ayrim tizimli muammolar mavjudligini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot davomida chet el sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratishning xalqaro shartnomalar mavjudligiga yuqori darajada bog'liqligi, hujjatlarni rasmiylashtirish bilan bog'liq protsessual murakkabliklar hamda ommaviy tartib (public policy) kategoriyasining aniq huquqiy mezonlarga ega emasligi mazkur sohadagi asosiy muammolar sifatida baholandi. Shuningdek, arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bo'yicha shakllangan xalqaro mexanizmlar chet el sudlari qarorlariga nisbatan ancha rivojlangan va samarali ekanligi aniqlandi. Bu holat xalqaro tijorat arbitrajining transchegaraviy iqtisodiy nizolarni hal etishdagi ahamiyati tobora ortib borayotganini tasdiqlaydi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi chet el sudlari va arbitrajleri qarorlarini tan olish hamda ijroga qaratish masalasini faqat normativ-huquqiy jihatdan emas, balki xalqaro standartlar, huquqiy doktrina va iqtisodiy sudlar faoliyati nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilishda namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari ushbu institut samaradorligi huquqiy normalarning mavjudligi bilangina emas, balki ularning amaliyotda izchil va bir xil qo'llanishi bilan ham chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Xususan, tahlil asosan normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro shartnomalar va ilmiy doktrina asosida olib borildi. Iqtisodiy sudlarning keng ko'lamli sud amaliyoti hamda statistik ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi ayrim xulosalarning empirik asoslarini kengaytirishga to'sqinlik qildi. Kelgusidagi tadqiqotlarda iqtisodiy sudlarning amaliy faoliyatini empirik ma'lumotlar asosida o'rganish, chet el sudlari qarorlarini tan olish bo'yicha sud amaliyotining statistik tahlilini amalga oshirish hamda O'zbekiston tajribasini Yevropa Ittifoqi davlatlari, Singapur va boshqa rivojlangan yurisdiksiyalar amaliyoti bilan qiyosiy o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunday tadqiqotlar mazkur institutning samaradorligini yanada oshirish va uni xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Minsk konvensiyasi (1993). Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Konvensiya. Minsk, 22-yanvar 1993-yil. – URL: <https://lex.uz/mact/-4907818>
2. Kishinyov konvensiyasi (2002). Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Konvensiya. Kishinyov, 7-oktabr 2002-yil. – URL: [lex.uz](https://lex.uz)
3. Nyu-York konvensiyasi (1958). Chet el arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Konvensiyasi. Nyu-York, 10-iyun 1958-yil. – URL: <https://www.worldbank.org/en/businessready>

<sup>11</sup> <https://www.worldbank.org/en/businessready>

[https://uncitral.un.org/en/texts/arbitration/conventions/foreign\\_arbitral\\_awards](https://uncitral.un.org/en/texts/arbitration/conventions/foreign_arbitral_awards) / Rossiya tilidagi matni: <https://lex.uz/uz/docs/-3523891>

4. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi. 24-yanvar 2018-yil (yangi tahrirlari bilan). – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-3523891>

5. Comity doktrinasi (Hilton v. Guyot, 1895). AQSh Oliy sudi qarori, 159 U.S. 113 (1895). – URL: <https://supreme.justia.com/cases/federal/us/159/113/>

6. Born, G. International Commercial Arbitration / Gary Born. – 3rd Edition. – Wolters Kluwer, 2021. – URL: <https://www.wolterskluwer.com/en/solutions/kluwerarbitration/born>

7. Dicey, Morris & Collins. Dicey on Conflict of Laws / Lord Collins of Mapesbury, Professor Jonathan Harris. – 16th Edition with Supplement. – Sweet & Maxwell; Thomson Reuters Australia, 2025. – URL: <https://store.thomsonreuters.com.au/dicey-on-conflict-of-laws-16e-mwsup/productdetail/132057>

8. Van den Berg, A. J. The New York Arbitration Convention of 1958: Towards a Uniform Judicial Interpretation ("NYAC I") / Albert Jan van den Berg. – Kluwer Law International, 1981. – URL: <https://www.newyorkconvention.org/resources/publications/nyac-i>

9. Journal of International Dispute Settlement (JIDS). Oksford universiteti nashriyoti, 1-tom, 2-son, 2010. – URL: <https://academic.oup.com/jids/article-abstract/1/2/271/902986?redirectedFrom=fulltext>

10. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD). Rasmiy elektron resurs. – URL: <https://www.oecd.org/>

11. Jahon banki (World Bank Group). Business Ready (B-READY) loyihasi ma'lumotlar bazasi. – URL: <https://www.worldbank.org/en/businessready> [1, 2]

INNOVATIVE  
ACADEMY